

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025
oktyabr**



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI
– Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn
konferensiya materiallari to'plami**

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	



O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI

Muzayyana Becnazarova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
yanitta2395@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimida fintech innovatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari hamda ularning sanoat-qurilish sektoridagi transformatsion ta'siri tahlil qilingan. Fintech texnologiyalarining (blokcheyn, sun'iy intellekt, Big Data, open banking) joriy etilishi bank xizmatlarini tezkor, qulay va shaffof shaklga keltirib, iqtisodiyotning real sektorida samaradorlikni oshirmoqda. Tadqiqotda fintech kompaniyalari va an'anaviy banklar o'rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy ahamiyati, raqamli to'lov tizimlari hamda kreditlash jarayonlarini soddalashtirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, fintech integratsiyasi orqali sanoat va qurilish tarmoqlarida moliyalashtirish, hisob-kitob va risklarni boshqarish mexanizmlarining raqamlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fintech, raqamli transformatsiya, bank tizimi, sanoat-qurilish sektori, blokcheyn, raqamli to'lov.

Abstract. This article analyzes the development trends of fintech innovations in Uzbekistan's banking system and their transformational impact on the industrial and construction sectors. The introduction of fintech technologies — such as blockchain, artificial intelligence, Big Data, and open banking — has made financial services faster, more transparent, and more efficient, thereby contributing to improved performance in the real economy. The study highlights the economic significance of cooperation between fintech companies and traditional banks, emphasizing their role in simplifying digital payment systems and lending processes. Furthermore, the paper demonstrates how fintech integration has enabled the digitalization of financing, accounting, and risk management mechanisms in the industrial and construction sectors.

Keywords: fintech, digital transformation, banking system, industrial-construction sector, blockchain, digital payments.

Аннотация. В данной статье рассмотрены тенденции развития финтех-инноваций в банковской системе Узбекистана и их трансформационное влияние на промышленно-строительный сектор. Внедрение технологий финтех, таких как блокчейн, искусственный интеллект, Big Data и открытое банкинговое, способствует повышению скорости, прозрачности и эффективности банковских услуг, что улучшает результативность реального сектора экономики. В исследовании раскрыта экономическая значимость сотрудничества между финтех-компаниями и традиционными банками, а также роль цифровых платежных систем в упрощении кредитных процессов. Кроме того, показано, как интеграция финтеха способствует цифровизации механизмов финансирования, учета и управления рисками в промышленно-строительных отраслях.

Ключевые слова: финтех, цифровая трансформация, банковская система, промышленно-строительный сектор, блокчейн, цифровые платежи.

KIRISH

So'nggi yillarda moliya sektori raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Fintech innovatsiyalari, ya'ni moliya va texnologiyalarning uyg'unlashuvi, bank xizmatlarini yanada qulay, tezkor va shaffof shaklga keltirmoqda. O'zbekistonda ham raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va to'lov tizimlarining jadal kengayishi natijasida fintech sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Fintech kompaniyalari an'anaviy banklar uchun raqobatchi emas, balki ularning raqamli modernizatsiyasini tezlashtiruvchi hamkor sifatida maydonga chiqmoqda. "Blokcheyn", "AI", "Big Data" va "Open Banking" texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan yechimlar orqali banklar kreditlash, hisob-kitob hamda xavf menejmenti jarayonlarini takomillashtirmoqda. Ayniqsa, bu jarayonlar sanoat va qurilish tarmoqlarida investitsion loyihalarni



moliyalashtirishni raqamlashtirish, shartnoma intizomini oshirish va byurokratik kechikishlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda.

Shu bois, O'zbekiston bank tizimida fintech innovatsiyalarining rivoji va ularning sanoat hamda qurilish sektoridagi transformatsion ta'sirini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda bank–fintech integratsiyasi jarayonining real sektor uchun iqtisodiy samarasi, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishdagi o'zni hamda yangi texnologiyalar asosida shakllanayotgan raqamli moliyaviy infratuzilma tahlil qilinadi.

O'zbekiston bank tizimida fintech innovatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari. O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar (fintech) jadal rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi. Fintech kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion xizmatlar — onlayn to'lovlar, raqamli hamyonlar, mobil banking va blokcheyn asosidagi operatsiyalar — bank sektorining raqamli transformatsiyasini tezlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025-yillar davomida mamlakatda raqamli to'lov operatsiyalari hajmi 7 barobardan ortiq oshgan, elektron to'lov tizimlari soni esa 30 tadan oshgan. G'ulomova o'z tadqiqotida ko'rsatganidek, 2024-yil holatiga bank kartalari soni 50,9 million donaga yetgan, to'lov terminallari 423 mingdan oshgan, bankomatlar esa 27 mingdan ziyod bo'lgan. Ushbu o'sish fintech texnologiyalarining bank xizmatlari bilan chuqur integratsiyalashayotganini ko'rsatadi.

Fintech kompaniyalari — Click, Payme, Uzum, OsonPay, Apelsin kabi mahalliy brendlar nafaqat chakana to'lovlarda, balki biznes uchun moliyaviy yechimlarda ham faol ishlamoqda. Shuningdek, raqamli banklar — TBC Bank, Anorbank, Joyda, Milliy Mobile, Agrobank Mobile va boshqalar fintech platformalarini to'liq integratsiya qilib, mijozlarga mobil ilovalar orqali 24/7 xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'ygan. Qayd etilganidek, fintech kompaniyalarining asosiy ustunligi ularning moslashuvchanligi va mijoz ehtiyojlariga tezkor javob bera olishida namoyon bo'ladi. Bu esa an'anaviy banklar uchun transformatsion muhit yaratmoqda.

Bank–fintech integratsiyasining iqtisodiy ahamiyati. Fintech texnologiyalarining joriy etilishi bank sektorida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, risklarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Fintech yechimlari orqali kreditlash jarayonlari soddalashtirilmoqda, mijozlarning to'lov qobiliyati Big Data va sun'iy intellekt asosida baholanmoqda. Bu jarayon an'anaviy bank amaliyotlarida mavjud bo'lgan byurokratik bosqichlarni qisqartirib, moliyaviy xizmatlar tezligini oshirmoqda.

O'zbekiston sharoitida fintech texnologiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri — raqamli to'lov ekotizimlaridir. Ular sanoat va qurilish tarmoqlaridagi yirik korxonalar uchun ham o'zaro hisob-kitobni soddalashtirish, mablag'lar aylanishini tezlashtirish hamda shaffoflikni ta'minlash imkonini bermoqda. Masalan, O'zsanoatqurilishbank tomonidan ishlab chiqilgan "Joyda" platformasi qurilish pudratchilari o'rtasidagi to'lovlarni raqamlashtirib, loyiha mablag'larining harakatini onlayn nazorat qilish imkoniyatini yaratdi. Bu amaliy yechim bank–fintech integratsiyasining real sektor uchun iqtisodiy samaradorligini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, fintech tizimlari yordamida blokcheyn asosidagi smart-kontraktlar sanoat loyihalarida shartnomaviy intizomni mustahkamlashda qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiya taraflar o'rtasidagi kelishuvlarning avtomatik bajarilishini ta'minlab, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi. Shu tariqa, fintech innovatsiyalari bank sektorining nafaqat ichki jarayonlarini, balki sanoat va qurilish kabi tarmoqlardagi moliyaviy operatsiyalarni ham modernizatsiya qilmoqda.

Fintechning sanoat-qurilish sektoridagi transformatsion ta'siri. Sanoat va qurilish tarmoqlari iqtisodiyotning eng kapital talab qiluvchi yo'nalishlari bo'lib, ularni moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish bank tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Fintech innovatsiyalari ushbu yo'nalishda yangi transformatsion yechimlarni yaratmoqda.

Avvalo, raqamli kredit platformalari yordamida sanoat korxonalari real vaqt rejimida kredit olish, hisob-kitob yuritish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu jarayonlar moliyaviy oqimlarning tezlashishiga, ishlab chiqarish tsiklining qisqarishiga hamda umumiy rentabellikning oshishiga xizmat qilmoqda.

AI asosidagi kredit scoring tizimlari sanoat va qurilish loyihalarining risk darajasini aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Natijada, banklar qaror qabul qilish jarayonida aniqroq va tezroq tahlil yuritish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu texnologiyalar kredit ajratish samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlamoqda.

Fintech innovatsiyalarining yana bir muhim jihati — raqamli hisob-kitob tizimlari orqali pudratchilar o'rtasida o'zaro ishonch muhitini kuchaytirishdir. Qurilish tarmoqlarida bunday yechimlar shartnoma bajarilishini avtomatik nazorat qilish, mablag'larni maqsadli sarflash hamda loyiha yakunida shaffof hisobotlar shakllantirish imkonini bermoqda. Natijada, bank–fintech integratsiyasi sanoat-qurilish sektorining transformatsion jarayonlarida "moliyaviy tezlashtiruvchi" rolini bajarmoqda.

Dolzarb muammolar va istiqbollar. Fintech innovatsiyalarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda, ularni boshqarish, xavfsizlik va regulyatsiya masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Fintech kompaniyalari moslashuvchan bo'lsa-da, ularning kiberxavfsizlik tizimlari banklarnikiga nisbatan zaifroq bo'lishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston bank tizimida fintech integratsiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, normativ-huquqiy



asoslarni takomillashtirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va foydalanuvchilar ishonchini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

Kelgusida O'zbekistonda fintech ekotizimining rivoji sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish siyosati bilan uyg'un holda davom etadi. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishda smart-kontraktlar, elektron hisob-kitob tizimlari va raqamli akkreditivlar asosida yangi mexanizmlar shakllanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni jadallashtiradi hamda sanoatning raqamli transformatsiyasini yanada chuqurlashtiradi.

XULOSA

O'zbekiston bank tizimida fintech innovatsiyalarining rivoji milliy moliyaviy tizimni zamonaviylashtirish hamda iqtisodiyotning real sektorlariga, xususan, sanoat va qurilish tarmoqlariga yangi imkoniyatlar yaratish bilan izohlanadi. Fintech texnologiyalari — raqamli to'lov tizimlari, mobil banking, blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi yechimlar — bank xizmatlarini tezkor, shaffof va xavfsiz shaklga keltirib, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirmoqda.

Bank–fintech integratsiyasi sanoat-qurilish loyihalarini moliyalashtirishda byurokratik kechikishlarni kamaytirib, shartnomaviy hisob-kitoblarni raqamlashtirish, mablag'lar harakatini onlayn kuzatish hamda risklarni avtomatik baholash imkonini bermoqda. Bu jarayon natijasida korxonalarning investitsion faolligi ortib, moliyaviy resurslardan foydalanish tezligi sezilarli darajada oshdi.

Biroq, fintech tizimlarining keng joriy etilishi bilan birga, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish hamda huquqiy regulatsiyani takomillashtirish kabi masalalar ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida fintech ekotizimini yanada rivojlantirish uchun moliyaviy institutlar, davlat regulatorylari va texnologik kompaniyalar o'rtasida uzviy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Fintech innovatsiyalari O'zbekiston bank tizimini nafaqat texnologik jihatdan yangilab, balki uni sanoat va qurilish tarmoqlarining raqamli transformatsiyasiga faol ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmga aylantirdi. Ushbu integratsiya natijasida iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, mamlakatda barqaror va innovatsion rivojlanish uchun yangi iqtisodiy asoslar shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (n.d.). Rasmiy sayt: <https://cbu.uz>
2. O'zsanoatqurilishbank. (n.d.). Rasmiy manba: <https://sqb.uz>
3. TBC Bank Uzbekistan. (n.d.). Rasmiy sayt: <https://tbcbank.uz>
4. Anorbank. (n.d.). Rasmiy manba: <https://anorbank.uz>
5. Uzum Bank. (n.d.). Rasmiy sayt: <https://uzum.uz>
6. World Bank Group. (2023). Fintech and Financial Inclusion: A Global Overview. Washington, D.C.
7. International Monetary Fund (IMF). (2022). Fintech in Emerging Markets: Balancing Innovation and Regulation. Washington, D.C.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100